XALQ DEPUTATLARI FURQAT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Fargona viloyati Furqat tumani Yuksalish ko’chasi, 15A-uy, +998 73 549 2800,
XalqdeputatlariFurqattumanKengashi

2025-yil 27-oktabr VII-12-89-11-164-K/25 Furqat tumani

Furqat tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Furqat tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim

shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Furqat tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Furqat tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Furqat tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 270 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 33,3 foiz (90 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 3,3 foiz (9 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 49,2 foiz (133 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 2,9 foiz (8 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 1,8 foiz (5 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0,7 foiz (2 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Furqat tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Furqat tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Furqat tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Furqat tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Furqat tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig’i (B.Abdullayev):

besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1 va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Furqat tumani Kengashining ushbu

qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Furqat tumani Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.To’ychiyevga, ijrosini taminash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Taniberdiyev zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Furqat tumani Kengashi raisi

ASRONKULOV ELYORBEK MADAMINOVICH

Xalq deputatlari Furqat tumani Kengashining
2025-yil 27-oktabrdagi
VII-12-89-11-164-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Davlat tashkilotlari (byudjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining MANZILLI RO‘YXATI

T/r	Tuman nomi	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:					
					nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
		Furqat tumani		**5376**	**22**	**247**	**90**	**9**	**133**	**8**	**5**	**2**
1	Furqat tumani	1-IDUM	207041453	65	0	3	1		2			
2	Furqat tumani	2-IDUM	206890980	86	0	5	1		4			
3	Furqat tumani	3-umumta’lim maktab	206895278	52	0	2	1		1			
4	Furqat tumani	4-umumta’lim maktab	206896474	81	3	4	1		3			
5	Furqat tumani	5-umumta’lim maktab	206895254	40	0	3	1		2			
6	Furqat tumani	6-umumta’lim maktab	206895293	48	0	3	1		2			
7	Furqat tumani	7-umumta’lim maktab	206895261	51	0	3	1		2			
8	Furqat tumani	8-umumta’lim maktab	206896434	61	1	3	1		2			
9	Furqat tumani	9-umumta’lim maktab	203283614	70	0	3	1		2			

10	Furqat tumani	10-umumta’lim maktab	206892338	59	0	3	1		2			
11	Furqat tumani	11-umumta’lim maktab	206896459	78	1	3	1		2			
12	Furqat tumani	12-umumta’lim maktab	206895285	70	0	2	1		1			
13	Furqat tumani	13-umumta’lim maktab	203283622	94	1	3	1		2			
14	Furqat tumani	14-umumta’lim maktab	206895239	75	0	5	1		4			
15	Furqat tumani	15-umumta’lim maktab	206892321	51	0	4	1		3			
16	Furqat tumani	16-umumta’lim maktab	203283639	80	0	2	1		1			
17	Furqat tumani	17-umumta’lim maktab	203283646	76	1	3	1		2			
18	Furqat tumani	18-umumta’lim maktab	203283607	76	0	3	1		2			
19	Furqat tumani	20-umumta’lim maktab	203283654	69	0	3	1		2			
20	Furqat tumani	21-umumta’lim maktab	203283599	86	0	5	1		4			
21	Furqat tumani	22-umumta’lim maktab	203283661	74	1	4	1		3			
22	Furqat tumani	23-umumta’lim maktab	206892353	58	1	3	1		2			
23	Furqat tumani	24-umumta’lim maktab	206887643	59		2	1		1			
24	Furqat tumani	25-umumta’lim maktab	206892345	60	0	3	1		2			
25	Furqat tumani	26-umumta’lim maktab	203283678	69	1	4	1		3			
26	Furqat tumani	27-umumta’lim maktab	203283685	92	0	6	3		3			
27	Furqat tumani	28-umumta’lim maktab	203283693	65	0	4	2		2			
28	Furqat tumani	29-umumta’lim maktab	206892314	66		2	1		1			
29	Furqat tumani	30-umumta’lim maktab	206892360	34	0	2	1		1			
30	Furqat tumani	31-umumta’lim maktab	206904842	53	1	3	1		2			
31	Furqat tumani	32-umumta’lim maktab	206896442	36		3	1		2			
32	Furqat tumani	33-umumta’lim maktab	206890973	44	0	2	1		1			
33	Furqat tumani	34-IDUM	202167552	42	0	3	1		2			
34	Furqat tumani	35-umumta’lim maktab	206975573	50		3	1		2			
35	Furqat tumani	36-umumta’lim maktab	206895246	74	0	2	1		1			
36	Furqat tumani	37-umumta’lim maktab	207306042	64	0	3	1		2			
37	Furqat tumani	38-umumta’lim maktab	309812991	30	0	3	1		2			

38	Furqat tumani	BARKAMOL AVLOD bolalar markazi	207124515	39	0	4	1		3			
39	Furqat tumani	Furqat obodonlashtiris h boshqarmasi	204511194	188	3	12	1		9	1		1
40	Furqat tumani	Furqat tuman madaniyat bo‘limi	200201646	39	0	2	1		1			
41	Furqat tumani	Furqat tuman sport maktabi	207141749	58		3	1		2			
42	Furqat tumani	Furqat tumani Politexnikumi	205285451.	111	4	5			4		1	
43	Furqat tumani	Furqat tumani Sanitariya-E O va J Si bo‘limi	200201701	69		3	1		1	1		
44	Furqat tumani	Furqat yo‘llardan foydalanish korxonasi	200201274	62		5	1	1	2		1	
45	Furqat tumani	Tuman tibbiyot birlashmasi	200201685	1340		23	5	2	12	2	1	1
46	Furqat tumani	12-BMSM	207195214	46		3	1		1		1	
47	Furqat tumani	Furqat Irrigatsiya bo‘limi	207263991	40		3	1	1	1			
48	Furqat tumani	1 -DMTT	207140453	31	0	2	1		1			
49	Furqat tumani	2-DMTT	207081562	32		2	1		1			
50	Furqat tumani	4-DMTT	207088014	30	0	1	1					
51	Furqat tumani	5-DMTT	207080889	25		2	1		1			
52	Furqat tumani	8-DMTT	207081515	31		2	1		1			
53	Furqat tumani	9-DMTT	207087997	23		2	1		1			
54	Furqat tumani	10-DMTT	207088046	44		3	1		2			
55	Furqat tumani	12-DMTT	207081508	25	1	2	1		1			
56	Furqat tumani	13-DMTT	207080912	31		3	1	1		1		
57	Furqat tumani	14-DMTT	207041484	20	0	1	1					
58	Furqat tumani	15-DMTT	207081784	30	1	1			1			
59	Furqat tumani	16-DMTT	207081776	40		2	1			1		

60	Furqat tumani	17-DMTT	207088007	30	0	1	1					
61	Furqat tumani	18-DMTT	207081293	24		1	1					
62	Furqat tumani	19-DMTT	207081318	34	1	3	1	1	1			
63	Furqat tumani	20-DMTT	207086294	23		1	1					
64	Furqat tumani	23-DMTT	206892353	33		3	1	1		1		
65	Furqat tumani	24-DMTT	207088054	25		1	1					
66	Furqat tumani	25-DMTT	207080896	30		3	1		1		1	
67	Furqat tumani	27-DMTT	207081586	30		2	1		1			
68	Furqat tumani	29-DMTT	207080904	26	0	2	1		1			
69	Furqat tumani	30-DMTT	207014422	47		1	1					
70	Furqat tumani	31-DMTT	207041477	23		2	1		1			
71	Furqat tumani	32-DMTT	207088039	25	1	2	1		1			
72	Furqat tumani	33-DMTT	207092991	21		2	1	1				
73	Furqat tumani	34-DMTT	207081579	21		1	1					
74	Furqat tumani	35-DMTT	207081301	23		2	1		1			
75	Furqat tumani	36-DMTT	207041492	30		2	1		1			
76	Furqat tumani	38-DMTT	305502580	29		2	1	1				
77	Furqat tumani	41-DMTT	203065814	21		2	1		1			
78	Furqat tumani	42-DMTT	305501495	24		1	1					
79	Furqat tumani	44-DMTT	305516437	22		2	1			1		
80	Furqat tumani	45-DMTT	305502810	21		1	1					
81	Furqat tumani	47-DMTT	203075270	27		1	1					
82	Furqat tumani	50-DMTT	207309814	20	0	2	1		1			
83	Furqat tumani	51-DMTT	207312732	30		2	1		1			
84	Furqat tumani	52-DMTT	203067257	23		1	1					
85	Furqat tumani	53-DMTT	309794991	22	0	1	1					

Xalq deputatlari Furqat tumani Kengashining
2025-yil 27-oktabrdagi
VII-12-89-11-164-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Farg‘ona viloyatida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining MANZILLI RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRi	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
4	**Furqat tumani**		**769**	**12**	**23**	**0**	**0**	**23**	**0**
1	"BNBM BUILDING MATERIALS CENTRAL ASIA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	306929634	129	1	4			4	
2	"FURQAT IN TEX" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	308619685	408	6	12			12	

3	"KO`MIR YETKAZUVCHI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	308800114	124	1	4			4	
4	"FURQAT BRAND TEKSTIL" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	312019158	108	4	3			3	